

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOV JAMSHID TO‘LQIN O‘G‘LI**

**ABDURAHMON JOMIYNING MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID**  
**QARASHLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Karimov Jamshid To'liqin o'g'li**

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari .....3

**Каримов Жамшид Тулкин угли**

Взгляды Абдурахмана Джамии на духовно-нравственное воспитание .....25

**Karimov Jamshid Tolkin ogli**

Abdurahman Jami's moral and spiritual educational views .....49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**KARIMOV JAMSHID TO‘LQIN O‘G‘LI**

**ABDURAHMON JOMIYNING MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYAGA OID  
QARASHLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro - 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PHD/Ped10676 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Izbullayeva Gulchehra Valeriyevna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Bazarova Saodat Jamolovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Kurbanova Gulnoz Negmatovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**


**Samarqand davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “21” aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Buxoro sh., M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, 200114. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (860 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Buxoro sh., M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, 200114. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27; e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “14” aprel kuni tarqatildi.

(2026-yil “14” aprel dagi 11- raqamli reestr bayonnomasi).

  
**S.Q.Qahhorov**  
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**F.X.Xazratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash kotibi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

**B.R.Adizov**  
Ilmiy darajalar beruvchi, Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi jahon ilmi-fanida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining boy ma'naviy-axloqiy merosi umumbashariy sivilizatsiya taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur merosning ta'lim-tarbiya mazmunini boyituvchi universal manba sifatidagi ahamiyati YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanib, Jahon madaniy merosi ro'yxatidan munosib o'rin egalladi. Shunga qaramay, Sharq allomalari qoldirgan ilmiy xazinaning jahon sivilizatsiyasi rivojiga ko'rsatgan tizimli ta'siri xalqaro miqyosda hali to'liq fundamental tadqiq etilmagan. Bu esa ushbu merosning ilmiy-nazariy asoslarini global pedagogik trendlar bilan uyg'unlikda o'rganish va uning insoniyat kamolotidagi o'rnini qayta belgilash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, globallashtirish sharoitida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan yangi talablar tarixiy-pedagogik yondashuvlarni zamonaviy muhitga moslashtirishni taqozo etmoqda. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida turli davrlardagi ta'lim-tarbiya tajribalarini qiyosiy tahlil qilish orqali milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda global raqobatbardoshlikka erishish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Bu borada Sharq pedagogik doktrinalarining ijobiy tomonlarini o'rganish, ularni g'arb yondashuvlari bilan sintez qilish va ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishda foydalanish xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tibordagi dolzarb yo'nalishga aylanib bormoqda.

O'zbekistonda pedagogika tarixini o'rganish va milliy merosimizni zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, yoshlarda yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ularni milliy an'analarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda ajdodlar o'giti poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, yurtimizda ta'lim tizimining ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba-yoshlarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish hamda buyuk mutafakkirlarimizning "Kamil inson" konsepsiyasini bugungi kun talablariga muvofiq amaliyotga tatbiq etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-son "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 26-martda PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 10-fevralda PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2026-yil 15-yanvarda PQ-9-son "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari va ushbu faoliyatga aloqador bo'lgan

boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu dissertatsiya mamlakatimizning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishga muvofiq amalga oshirilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Alisher Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", Ali Safiyning "Rashhotu ayn il-hayot", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Xondamirning "Makorim ul-axloq", Zaynuddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe", Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy", Kamoliddin Abdulvose' Nizomiyning "Maqomoti Jomiy", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" kabi o'rta asr mutafakkirlarning asarlarida Abdurahmon Jomiy merosiga oid ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Respublikamizdan G'afur G'ulom, Sh.Shomuhamedov, N.Komilov, B.Valixo'jayev, H.Homidiy, I.Haqqul, Sh.Sirojiddinov, S.Sayfulloh, M.Kenjabek, J.M.Xolmo'minov, A.O'runboyev, A.Qayumov, R.Vohidov, G.N.Navro'zova, A.A.Huseynova, G.V.Izbullayeva, L.M.Karimova kabi olim va olimalarimiz Abdurahmon Jomiy merosini ma'rifiy, ma'naviy va pedagogik qarashlarini birlamchi manbalar asosida o'rganib, ilmiy-amaliy imkoniyatlarini tadqiq etganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi respublikalari olimlaridan Ye.E.Bertels, A.Afsahzod, I.S.Braginskiy, A.Edelman, M.Aripov (Orifiy), M.Rajabov, A.Mirzoyev, A.Muxammedxodjayev, A.Sattorov, A.Qurbonmamedov, S.M.Saidmirova kabi olimlar tomonidan Jomiy merosining ijtimoiy, tarixiy, falsafiy ahamiyati va didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Jahon ilm-fanida o'z o'rniga ega bo'lgan F.Hedlan Devis, A.Masse, E.Braun, A. Shimmel, Dj.S.Trimingem, Idris Shoh, U.Chittik, Yan Rishar, U.Yahyo, A.Zarrinko'b, K.Muhammadiy, P.Morvedj, U.Turar, M.A.Jo'shon, M.I.Muballig', M.Hiraviy, A.Hikmat, Z.Safo, A.Guliyev, Farah Fatima Golparvaran Shadchehr, Ertug'ul I.Okten kabi olimlar Abdurahmon Jomiy merosi bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan.

Tadqiqotimiz davomida tahlil natijalari yuzasidan ma'lum bo'ldiki, zamonaviy globallashuv dunyosida ulug' mutafakkir Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari negizida yoshlar ongini shakllantirish, ularni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan boyitish yo'llarini izlash, ilmiy asoslash va amaliyotga tadbiq etishning pedagogik imkoniyatlarini o'rganish, umumlashtirish va tartiblash, bundan tashqari tizimli tahlil etish asoslarini takomillashtirish nihoyatda zarur va dolzarb masalaga aylanmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – "Barkamol avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari" doirasida, universitetning amaldagi

tadqiqot rejasi asosida va uning dasturiy talablariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish, ularni pedagogik tahlil qilish orqali hozirgi zamonaviy yoshlar ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rnini asoslash va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish pedagogik zarurat ekanligi hamda ushbu qarashlarning bugungi kun yoshlarini tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda ta'lim-tarbiyaga oid asarlarining mazmun-mohiyatini pedagogik tahlil qilish;

Abdurahmon Jomiy asarlarida ijtimoiy munosabatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda adolatli shaxsni tarbiyalashdagi mazmunini pedagogik tasniflash;

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini o'quv jarayoniga tadbiiq etish, yoshlarni tarbiyalashning samaradorligini isbotlash hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekt**i Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiya borasidagi qarashlarini o'rganish hamda ushbu g'oyalardan oliy ta'limning o'quv-tarbiya faoliyatida foydalanish jarayoni.

**Tadqiqotning predmeti:** Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid "Bahoriston" hamda "Haft avrang" to'plami tarkibidagi "Iskandar xiradnomasi", "Silsilat uz-zahab" va "Tuhfat-ul ahror" kabi asarlarining mazmun-mohiyati.

**Tadqiqotning usullari:** tadqiqot ishida germenektivik tahlil, tarixiy xronologik va analitik tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov ishlari (test, anketa so'rovnomasi va suhbat), matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy merosi global integratsiya va axborotlashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda yoshlar tarbiyasining aqliy va ma'naviy asosi sifatida metodologik jihatdan asoslandi hamda mutafakkirning "Inson kamoloti" konsepsiyasi milliy hamda insonparvarlik qadriyatlar sintezi sifatida dalillandi;

Jomiyning "Bahoriston" hamda "Haft avrang" to'plami tarkibidagi "Iskandar xiradnomasi", "Silsilat uz-zahab" va "Tuhfat-ul ahror" kabi asarlaridagi ma'naviy-axloqiy qarashlarning shaxsiy namuna, mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash, ijtimoiy muhit ta'siri kabi ta'limiy imkoniyatlari aniqlandi va ularning talaba shaxsini shakllantirishdagi pedagogik mexanizmlari (suhbat, ibrat, pand-nasihati) zamonaviy ta'lim standartlari nuqtai nazaridan transformatsiya qilindi;

Jomiy asarlarida ilgari surilgan ustozga ehtirom, do'stlik, tarbiya berishda ijtimoiy muhitning o'rni, ilm egallash va kasb-hunar tanlash kabi ijtimoiy munosabatlar mezonlari tizimlashtirildi hamda talaba yoshlarda ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlaydigan kamtarlik, vijdonlilik, shukronalik, sabr-qanoat, insonparvarlik, halollik, hayo va or-nomus kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar va

adolatli shaxsni tarbiyalashning pedagogik jarayonda foydalanish imkoniyatlari germenevtik yondashuv asosida pedagogik tasniflandi;

Mutafakkirning ma'naviy-axloqiy qarashlarini integrativ muammoli, reflektiv, innovatsion va texnologik yondashuvlar asosida o'quv jarayoniga tatbiq etishning pedagogik mazmuni takomillashtirildi hamda ulardan yoshlar tarbiyasidagi samaradorlik ko'rsatkichlari (kognitiv, motivatsion va faoliyatli) eksperimental tekshiruvlar asosida isbotlandi va tavsiyalar ishlab chiqildi.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

Pedagogika nazariyasi va tarixi, Yunogogika, Xalq pedagogikasi va Milliy tarbiya asoslari kabi pedagogik turkum fanlarini o'qitish jarayonida talabalarga Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan iborat "Bahoriston", "Iskandar xiradnomasi", "Silsilat uz-zahab", "Tuhfat ul-ahror" asarlaridagi tuzilmaviy (mazmuni va tarkibi) hamda pedagogik qarashlarining uyg'unligi kabi germenevtik jihatdan takomillashtirishga doir nazariy-metodologik tavsiyalar berilgan;

Pedagogik yondashuv asosida Abdurahmon Jomiy asarlarida ijtimoiy munosabatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va fuqarolik jamiyatida adolat g'oyalari asosida talaba-yoshlar faolligini oshirishga qaratilgan tarbiya xususiyatlari ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot davomida qo'llanilgan nazariy asoslar, tanlangan metodlar va ilmiy yondashuvlar rasmiy manbalarga tayangan holda belgilangan. Shuningdek, olib borilgan ishlarning ilmiy maqolalarda chop etilganligi, respublika hamda xalqaro ilmiy anjumanlarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan xulosa va takliflar ishlab chiqilganligi hamda amaliyotga tadbiq etilganligi bilan asoslanadi. Olingan ilmiy natijalar tegishli vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangani esa tadqiqotning ilmiy qiymatini yanada mustahkamlaydi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan ma'naviy-ma'rifiy konseptual g'oyalar ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishda qo'llash imkoniyatiga ega. Ushbu g'oyalar uzluksiz ta'lim tizimi, mahalla va oila muassasalari, Yoshlar ijod markazlari hamda ma'naviy-madaniy tarbiya maskanlarining kundalik faoliyatida amaliy qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda turli ijtimoiy institutlarning ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatini samarali tashkil etishda namoyon bo'ladi. Natijalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonini hamda "O'zbekistonning 2022-2032-yillarga mo'ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasi"ni hayotga tadbiq etishda va uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ma'rifiy tafakkur hamda ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini takomillashtirishda qo'l kelishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi oliy ta'limdagi pedagogik ta'lim muassasalarida pedagogik fanlarni o'qitish jarayonida Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini o'rganish pedagogik zarurat ekanligi hamda ushbu qarashlarning bugungi kun yoshlarini tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyatidan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Buxoro viloyati teleradiokanali DMning "Moziy bisotidan", "Assalom, Buxoro" ko'rsatuvlari ssenariysini tuzishda foydalanilgan hamda davra suhbatlari muloqotlar uyushtirilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Buxoro viloyati teleradiokanali DM 2025-yil 17-dekabrda 01-09-274-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka yetkazildi hamda uning tarbiyaviy mazmuni keng auditoriya ongiga singdirildi;

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari hamda ta'lim-tarbiyaga oid asarlarining mazmun-mohiyatining pedagogik tahlilidan 60110100-Pedagogika ta'lim yo'nalishida o'tiladigan Pedagogika nazariyasi va tarixi, Xalq pedagogikasi, Milliy tarbiya asoslari va Yunogogika fanlarining ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulot darslarini tashkil qilishda hamda o'quv dastur va sillabuslarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 29-dekabrda 02/01-01-640-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlariga tayangan holda yuqoridagi fanlarning mazmuni boyitildi hamda ularning nazariy asoslari milliy-ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirildi.

Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" hamda "Haft avrang" to'plami tarkibidagi "Iskandar xiradnomasi", "Silsilat uz-zahab" va "Tuhfat-ul ahror" asarlaridagi ijtimoiy munosabatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda adolatli shaxsni tarbiyalashdagi mazmuni germeneytik yondashuv asosidagi pedagogik tasnifidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan amalga oshirilgan targ'ibot ishlarida keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 22-dekabrda 03-12-16-7512-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Abdurahmon Jomiy asarlarida ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy qarashlar keng jamoatchilikka zamonaviy talqin asosida yetkazildi va ularning tarbiyaviy salohiyati amaliy targ'ibot faoliyatiga samarali integratsiya qilindi.

Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini o'quv jarayoniga tadbiiq etish, yoshlarni tarbiyalashning samaradorligini isbotlangan hamda tavsiyalar ishlab chiqilib, "Yunogogika" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martda 68-sonli buyrug'i, 68-632-raqamli guvohnoma). Natijada, Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini o'quv jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish orqali yoshlar tarbiyasining samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslandi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur dissertatsiyaning natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusiga doir 19 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i asosida 1 ta o'quv qo'llanma hamda 1 ta

monografiya nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, uning hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi tavsiflab berilgan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti hamda tadqiqotda qo‘llanilgan usullar yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy hamda amaliy natijalari va ushbu natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Abdurahmon Jomiy ma‘naviy-axloqiy qarashlarini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Abdurahmon Jomiyning ma‘naviy-axloqiy qarashlarini o‘rganish pedagogik muammo sifatida asoslanib, allomaning ma‘naviy-axloqiy qarashlarinining ta‘lim jarayonidagi mavjud ahvoli, imkoniyatlari hamda axloqqa oid asarlarining mazmun mohiyati aniqlangan. Bundan tashqari, bob doirasida Jomiyning ma‘naviy-axloqiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan sharq mutafakkirlari, tadqiqotchi olimlar, xususan, O‘zbekiston, MDH, xorijiy mamlakatlar olimlari va pedagogika tarixiga oid ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilinib, ularda ilgari surilgan nazariy qarashlarning umumiylik va farqli jihatlari ochib berilgan. Fan dasturlari, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tahlil qilinib, dissertatsiya ishining zarurati ilmiy asoslab berilgan.

Jahon ilm-fanida allomaning merosi asosan madaniy, falsafiy, diniy va gumanitar doirada tasavvuf, axloq, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan iborat bo‘lgan yo‘nalishdagi asarlari o‘rganilgan. MDH mamlakatlarida esa Jomiyning merosi ko‘proq milli-madaniy o‘zlikni mustahkamlash vositasi sifatida baholanib kelmoqda. Xususan, Tojikistonda Jomiy milliy iftixor timsoli hisoblanib, uning asarlari maktab va oliy ta‘lim muassasalarida o‘rgatiladi. MDHning boshqa mamlakatlari Ozarbayjon va Qozog‘istonda esa Jomiy merosi adabiy turkum bilan bog‘lab o‘rganilmoqda. Ilmiy izlanishlar asosan uning g‘azallari, masnaviylari va fors-tojik adabiyotidagi tutgan o‘rni bilan bog‘liq tarzda olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida esa alloma sharq mutafakkirlarining buyuk vakili, tasavvufiy va falsafiy tafakkur targ‘ibotchisi sifatida o‘rganib kelinmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda Jomiy va uning zamondoshi Alisher Navoiy o‘rtasidagi ijodiy-ma‘naviy do‘stlik, tasavvufiy qarashlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Ta'lim mazmunini tashkil etadigan darslik va o'quv qo'llanmalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, XV asrda Movarounahr va Xurosonda juda yuqori mavqeiga ega va juda katta ilmiy merosga ega bo'lgan Abdurahmon Jomiy pedagogik merosini o'rganish bo'yicha to'liq ma'lumot keltirib o'tilmagan. Keltirilgan ma'lumotlarda ham ayrim asarlariga va ijodiga to'laqonli to'xtalib o'tilmagan. Xususan, alloma tomonidan yaratilgan ma'naviy meros hamda didaktik mazmundagi asarlarining pedagogik tahlili e'tibordan chetda qolgan. Vaholanki, Abdurahmon Jomiy sharqda nafaqat o'z davrining yirik mutafakkiri va olimlaridan bo'lgan, balki u o'z asarlari orqali yosh avlodni tarbiyalash, ularga ma'naviy-axloqiy qarashlarini singdirish, bilim va ma'rifatga muhabbat uyg'otish masalalariga ham alohida e'tibor qaratgan.

60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini singdirish mumkin bo'lgan quyidagi majburiy fanlar yetakchilik qiladi:

1. Pedagogika nazariyasi va tarixi;
2. Milliy tarbiya asoslari;
3. Xalq pedagogikasi;
4. Yunogogika va boshqa pedagogik fanlar.

Hozirgi kunda ushbu fanlarda Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan foydalanish ma'lum darajada amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, uning ma'rifiy, ijtimoiy va ma'naviy qarashlaridan to'liq foydalanilmayotganligini kuzatishimiz mumkin. Allomaning "Bahoriston" hamda "Haft avrang" to'plami tarkibidagi "Iskandar xiradnomasi", "Silsilat uz-zahab" va "Tuhfat-ul ahror" kabi asarlarida yoshlar shaxsini kamol toptirish, ijtimoiy axloq me'yorlarni shakllantirish va komil inson tarbiyasiga doir g'oyalar o'z ifodasini topgan. Bu asarlar mazmuni bugungi zamonaviy pedagogik qarashlar bilan uyg'un bo'lib, ularni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash imkoniyati mavjud. Shuningdek, Jomiy asarlarida ilgari surilgan axloqiy-pedagogik g'oyalar, didaktik qarashlar va tarbiyaviy qadriyatlar sharq pedagogik tafakkurining boy manbai sifatida e'tirof etilishi zarur. Bu esa allomaning pedagogik qarashlarini kengroq ochib berishga hamda ta'lim mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Alloma o'zining ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari orqali axloqiy, aqliy, mehnat va estetik tarbiya turlarining mohiyatini ochib beradi. Ushbu pedagogik qarashlardan foydalanib tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalarini boyitishda qo'llash mumkin. Asarlarda ifoda etilgan qarashlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, insonni har tomonlama yetuk, jamiyatga foydali va barkamol shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan. Jomiyning asarlari ta'lim va tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi. Uning fikrlari tarbiya jarayonida shaxsiy rivojlanish uchun muhim vosita sifatida ko'rishimiz mumkin. Jomiyning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashda qo'llanilishi mumkin. Bu jihatdan qaraganda, Abdurahmon Jomiy ta'limni nafaqat bilim berish jarayoni, balki insonning ichki dunyosini boyitish, uning axloqiy va ma'naviy kamolotini ta'minlash vositasi sifatida talqin etadi. U insonda halollik, adolat, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirishni tarbiyaning asosiy maqsadi deb biladi. Shu


sababli, Jomiy merosini zamonaviy ta'limning modellari va texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini yanada oshirish mumkin. (1-jadvalga qarang):

### 1-jadval

#### Jomiyning ma'naviy-axloqiy merosida ifodalangan tarbiya turlari hamda ularni zamonaviy ta'lim jarayonida samarali qo'llash yo'llari

T/r	Tarbiya turlari	Jomiy merosi	Fanlar	Mavzular mazmuni
1	Axloqiy tarbiya	<i>Bajarmaydi farzand otasi so'zin, / "Holva yema", desa yeb turib o'zi.</i>	Milliy tarbiya asoslari	Yoshlarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni tarkib toptirish
			Yunogogika	Yoshlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari
2	Aqliy tarbiya	<i>Xulqi yomonlarga berma zar yo kuch, / Yomonliklariga berma quvvat hech.</i>	Xalq pedagogikasi	Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari
			Pedagogika nazariyasi va tarixi	Shaxs kamoloti ijtimoiy biologik hodisa, pedagogik jarayon obyekt va subyekt sifatida
3	Mehnat tarbiyasi	<i>Kim hunarni desa, u dono bo'lur, / Nodonlar qudrat deb boylikni bilur.</i>	Xalq pedagogikasi	Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari
			Milliy tarbiya asoslari	Yoshlarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni tarkib toptirish
			Yunogogika	Yoshlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari
4	Estetik tarbiya	<i>Hayosiz ishlardan yuzingni o'gir, / Xayrli ish bo'lsa ildamroq yugur.</i>	Pedagogika nazariyasi va tarixi	Temuriylar davrida Movarounnahrda pedagogik fikrlar rivoji
			Xalq pedagogikasi	Xalq pedagogikasida yoshlarni tarbiyalashning metod, usul va vositalari
			Milliy tarbiya asoslari	Yoshlarda ma'naviy-axloqiy dunyoqarashni tarkib toptirish
			Yunogogika	Yoshlar bilan ishlash bo'yicha kasbiy-pedagogik faoliyat va uning o'ziga xosliklari

Yuqoridagi tahlillar asosida Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan pedagogik jarayonda foydalanish imkoniyatlarini ifodalovchi takomillashtirilgan modeli ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Abdurahmon Jomiyning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan pedagogik jarayonda foydalanish imkoniyatlarini ifodalovchi takomillashtirilgan model mazmuni**

Mavlono Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy 1414-yilning 7-noyabrida Nishopur yaqinidagi Jom shahrida dunyoga kelgan. Abdurahmon Jomiyning otabobolari asli Isfahonlik bo‘lishgan, amaldorlik, qozilik bilan shug‘ullangan. Jomiy tug‘ilgan xonadon o‘sha davrning ma‘rifatli, obro‘-e‘tiborli xonadon edi. Ular mustaqillikka maylining balandligi, jur‘at-jiddiyati, adolatpeshaligi bilan ajralib turgan. Jomiy esa aynan shunday nufuzli va ibratli xonadonda tarbiya topgan edi. Bo‘lajak mutafakkirning oilasi uning bolalik davrida Hirot shahriga ko‘chib keladi.

Allomaning adabiy va ilmiy merosi boy bo‘lib, falsafa, axloq, pedagogika, tilshunoslik, adabiyot, tarix va boshqa sohalarini qamrab oladi. “Haft avrang” (Yetti taxt) asari uning eng yirik asaridir. Mavlono Jomiy “Xamsa”si dastlab 5 ta dostonidan iborat bo‘lgan. Bular: “Tuhfat ul-ahror” (Yaxshilar tuhfası), “Sabhat ul-abror” (Taqvodorlar tanbehi), “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun”, “Xiradnomayi Iskandariy”. Bu asarlarni 1485-yili yozib tugallagan. Keyinchalik “Silsilat uz-zahab”, “Salomon va Absol” asarlarini qo‘shib, “Xamsa”sini yetti dostonga yetkazdi. Jomiy yaratgan fanlarning turli sohalaridagi asarlar soniga ko‘ra aniq raqam yo‘q. Abdurahmon Jomiy yaratgan boy merosni quyidagi guruhlariga bo‘lishimiz mumkin (2-jadvalga qarang):

## 2-jadval

### Abdurahmon Jomiy asarlar tasnifi va nomlanishi

Asarlar tasnifi	Asarlar nomlanishi
<b>Axloqqa oid asarlari</b>	“Bahoriston”, “Silsilat uz-zahab” (Oltin zanjir), “Tuhfat ul-ahror” (Yaxshilar tuhfası), “Sabhat ul-abror” (Taqvodorlar tanbehi), “Xiradnomayi Iskandariy” (Iskandar xiradnomasi)
<b>Falsafaga oid asarlari</b>	“Naqdun-nusus” (Aniqlangan dalillar), “Lavome” (Shu‘lalar), “Ashi‘at ul-lama‘ot” (Shulalar ziyolilari), “Tahqiq ul-mazohib” (Mazhablarni aniqlash).
<b>Tasavvufga oid asarlari</b>	“Naqshi fusus” (Uzuk ko‘zlarining bezagi), “Shavohidi nubuvva” (Payg‘ambarlikka dalillar).
<b>Filologik asarlari</b>	“Risolai aruz”, “Muammo haqida to‘rt risola”, “Salaflari sherlariga izoh”, tazkira va boshqalar.
<b>She‘riy devonlari</b>	“Fotihat ush-shabob”, “Vasitat ul-iqd”, “Xotimat ul-hayot”.
<b>Tarjimayi hol janrida</b>	“Nafahot al-uns min hadorat al-quds” (616 ta tarjimayi hol).
<b>Musiqaqa oid asarlari</b>	“Risolai musiqiy”

U “Bahoriston”, “Xiradnomayi Iskandariy”, “Tuhfat ul-ahror”, “Silsilat uz-zahab” va boshqa asarlarida ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya, kasb-hunar tanlash, yaxshi xislat va odob egallash borasida o‘z fikrlarini bayon etadi.

Xususan, allomaning hijriy 890 (1485) yilda yozilgan “Iskandar xiradnomasi” dostoni Iskandar hamda Antik davrning faylasuflariga tegishli pand-nasihat va axloqiy-hikmatlarga boy asardir. Asarda Iskandarning tug‘ilishi, Aristoteldan ta‘lim olishi, ammo tarixiy Aleksandr emas, Jomiyning tasavvuridagi odil, dono, ma‘rifatparvar shoh obrazi tasvirlanadi. Shu bois Jomiy asarni “Iskandar xiradnomasi” deb atab, uni pand-nasihatga asoslangan didaktik doston sifatida yaratadi. Asar orqali shoir adolat, ilm, axloq, hikmatning shohlar siyosatidagi va inson hayotidagi o‘rni haqida chuqur fikr yuritadi.

Mutafakkirning pand-nasihat janrida yozilgan ammo, “Iskandar Xiradnomasi”dan butunlay farq qiladigan, Jomiyning bizgacha yetib kelgan birdan

bir nasrda yozilgan asari “Bahoriston” Abdurahmon Jomiy ijodida salmoqli o‘rin tutadi. Mazkur asar 1487-yilda yaratilgan. Abdurahmon Jomiy “Bahoriston”ni o‘g‘li Ziyovuddin Yusufga o‘qish kitobi sifatida yozgan. Asar allomaning o‘g‘liga bag‘ishlanganini hisobga olsak, “Bahoriston”ni didaktik yo‘nalishdagi asar deyish mumkin. “Bahoriston” Sharq adabiyotining noyob durdonalaridan biri bo‘lib, u asrlar davomida sharq mutafakkirlariga ilhom manbai bo‘lib kelgan. Mutafakkirning “Bahoriston” asari axloqshunoslikning o‘ziga xos namunalari sifatida ajralib turadi. Navoiy uni “Hayot bahoristoni va najot nigoristoni” deb ataydi.

“Bahoriston” Abdurahmon Jomiy hayot kechirgan davrning eng ilg‘or, eng muhim va tizimlashgan ta‘lim-tarbiyaviy, axloqiy-falsafiy, estetik qarashlarini o‘zida jamlagan umrboqiy xazina, buyuk bir asardir. Bu asarning bunchalik katta shuhrat qozonishiga umumbashariy yondashuvlarning ko‘pligi sababdir. “Bahoriston” Abdurahmon Jomiyning axloqiy-ta‘limiy, tarbiyaviy-falsafiy fikrlarini belgilashda qanchalik zarur bo‘lsa, buyuk adib, XV asrning qomusiy donishmandi estetik qarashlarini, adabiy-tanqidiy nigohini o‘rganishda ham katta ma‘lumot beruvchi manba sifatida qimmatlidir.

Mutafakkir asarning sakkiz ravza – bog‘dan iboratligini ta‘kidlaydi. Asarning har bir bobi muallif tomonidan “ravza” (bog‘) deb atalgan. “Bahoriston” asaridagi masal va hikoyatlar bugungi kundagi yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tomondan barkamol bo‘lib yetishuviga xizmat qiladi. Jomiy “Bahoriston”dagi masal va hikoyatlarning anchagina qismi keyingi davr o‘zbek shoir va yozuvchilariga ilhom manbai bo‘lib xizmat qildi.

Jomiyning “Silsilat az-zahab” asari falsafiy va ta‘limiy doston bo‘lib, tasavvuf falsafasining murakkab masalalari, hadislar va shayxlarning so‘zlariga sharhlar, qiziqarli rivoyatlar va axloqiy hikmatlar bilan boyitilgan. Asar vazn, ham mazmun jihatidan Sanoiyning so‘fiylik ta‘limotining ba‘zi masalalarini talqin qiluvchi “Xadiqat al-haqoyiq” asariga yaqindir. Bu asar 3 bosqichda yozilgan (1472-1485-yillarda). Unda mamlakatni qanday boshqaruv kerakligi to‘g‘risida pandu nasihatlar yoritilgan. Bu asarda keyinchalik Jomiy yana ikki qism: tasavvufdagi ma‘naviy ishq va Sulton Boyazid II ga bag‘ishlangan mamlakatni adolatli idora etish haqidagi qismni qo‘shadi. Asarda naqshbandiya g‘oyalariga keng o‘rin berilishiga qaramay, hiylakor va johil din ahllari ayamay tanqid qilingan mamlakatni boshqarish, davlatni idora etish, axloq-odob, adabiyotga doir taraqqiyparvar fikrlar bayon etilgan. “Silsilat uz-zahab”dagi kichik hikoyalar turli xil mavzulardan tashkil topgan.

Bundan tashqari Jomiyning “Tuhfat ul-ahror” asarini axloqqa oid manba sifatida o‘rganishimiz ham xato bo‘lmaydi. “Tuhfat ul-ahror” kishilarni ma‘naviy mukammallikka tashviq etuvchi, insonga bezak bo‘ladigan oliyjanob fazilatlarni kasb etmoqqa o‘rgatuvchi falsafiy-axloqiy asardir. Navoiy ham bu asardan ta’sirlanib, xuddi ana shunday asar yaratishga qaror qilgan va asarining nomini “Hayrat ul-abror” (Yaxshilarning hayratlanuvchilari) deb atagan.


Jomiy ijodining markazida insonning ma‘naviy yetukligi, axloqiy komillikka intilishi, ilmga va odobga bo‘lgan munosabati turadi. Alloma o‘z asarlarida ilm-ma‘rifat, ta‘lim-tarbiya, kasb-hunar o‘rganish, ezgu fazilatli inson bo‘lib yetishish kabi masalalarga alohida e‘tibor beradi. Mutafakkirning “Bahoriston”,

“Xiradnomayi Iskandar”, “Silsilat uz-zahab” va “Tuhfat ul-ahror” kabi asarlari Sharq ma’rifatparvarligining yuksak namunalari sanaladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi “**Abdurahmon Jomiy asarlaridagi ma’naviy-axloqiy qarashlarining asosiy yo‘nalishlari**” deb nomlangan bobida Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Xiradnomayi Iskandar”, “Silsilat uz-zahab” va “Tuhfat ul-ahror” kabi asarlaridagi ijtimoiy munosabatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda ushbu asarlarda allomaning adolatli shaxsni tarbiyalashdagi pedagogik g‘oyalari tahliliga bag‘ishlangan.

Abdurahmon Jomiy o‘z asarlarida ustozga hurmat munosabatini ijtimoiy hayotning muhim negizi sifatida talqin etadi. Ustozga bo‘lgan hurmat, sadoqat va ehtirom – nafaqat shaxsiy kamolot, balki butun jamiyatning ma’naviy yuksalishi uchun zaruriy qadriyat sifatida ko‘riladi.

Abdurahmon Jomiy asarlarida aks etgan ijtimoiy munosabatlar komil inson bo‘lish sari yo‘naltirilgan chuqur axloqiy g‘oyalarga asoslanganidir. Ustoz shaxsiga bo‘lgan hurmat-ehtirom, do‘stlik, do‘st tanlashdagi ehtiyotkorlik, kasb-hunar egallash zaruriyati, kitob va ilmga muhabbat, kattalarga ehtirom va kichiklarga mehr kabi masalalar allomaning asarlarida inson tarbiyasining poydevori sifatida tasvirlangan. Undagi ijtimoiy munosabatlar haqidagi hikmatlar professor-o‘qituvchi va tarbiyachilar uchun yosh avlodni tarbiyalashdagi muhim manbalardan hisoblanadi. Xususan, allomaning asarlarida ustoz shaxsiga bo‘lgan hurmat-ehtirom alohida o‘rin tutgan. Jomiy ilm, tarbiya va ma’naviyatning bosh manbai sifatida ustozni ulug‘laydi, unga bo‘lgan munosabatni axloqiy kamolot mezoni deb biladi. Ushbu fikr orqali ustozga ehtiromning mohiyati chuqur mazmundor shaklda alloma tomonidan Iskandar misolida tushuntiriladi. Jomiyning fikricha, ota tanani bersa, ustoz unga mazmun, ma’no, nur va abadiylik baxsh etadi. Ustoz shogirdni fikrlash, ma’noli so‘zlash, haqiqatni anglash hamda jamiyatda munosib o‘rin egallashga chorlagan va hikmatlar orqali ochib bergan. Alloma “Iskandar xiradnomasi” asarida shaxs kamolotida ota va ustozning rolini qiyoslab beradi (2-rasmga qarang):



**2-rasm. “Iskandar xiradnomasi” asarida shaxs kamolotida ota va ustozning roli**

Jomiy asarlarida ko‘zga tashlanadigan yana bir ijtimoiy munosabatlarning komponenti sifatida do‘stlik, do‘stni tanlash hamda do‘stlar orasidagi munosabatlarni bunga misol qilib ko‘rsatishimiz o‘rinlidir. Jomiy fikricha, do‘stlik – bu faqatgina hamjihatlikda vaqt o‘tkazish yoki manfaat asosidagi aloqa emas, balki sadoqat, samimiylilik, vafodorlik, halollik va hokazolar kabi yuksak insoniy fazilatlarga asoslangan ijtimoiy munosabat sifatida talqin qiladi.

Bundan tashqari, Abdurahmon Jomiy asarlarida ilm egallash va kasb-hunar tanlash masalasi faqat insonning shaxsiy taraqqiyot omili sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi muhim tarkibiy komponent sifatida talqin etiladi.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlashimiz kerakki, Abdurahmon Jomiy asarlarida kitobni sevish, bilim olish, kattaga hurmat va kichiklarga izzatda bo‘lishga, tarbiya berishda ijtimoiy muhitning o‘rni, doim yaxshilik qilish kabi qarashlar nafaqat nasihat qilish orqali, balki chuqur axloqqa asoslangan ijtimoiy g‘oya sifatida talqin etiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Abdurahmon Jomiy asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy munosabatlarning jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rinni egallagan ustoz shaxsiga bo‘lgan hurmat-ehtirom, do‘stlik, do‘stni tanlash hamda do‘stlar orasidagi munosabatlar, ilm egallash va kasb-hunar tanlash, kitobni sevish, bilim olish, kattaga hurmat va kichiklarga izzatda bo‘lishga, tarbiya berishda ijtimoiy muhitning o‘rni, doim yaxshilik qilish kabi qarashlar bugungi zamonaviy pedagogikaning axloqiy yondashuvlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Abdurahmon Jomiy qarashlarida insonning komillikka intilishi, axloqiy poklik, donolik, kamtarlik, sabr-toqat, shukronalik, halollik, nafsni tiyish, iymon, e’tiqod, qalb va vijdon tarbiyasi, rostgo‘ylik va to‘g‘ri so‘zlash kabi fazilatlar yetakchi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar sifatida talqin etiladi. Darhaqiqat, Jomiy deyarli barcha asarlarda ushbu fazilatlarni targ‘ib etadi va ularni inson kamolotining asosiy mezonlari sifatida ko‘rsatadi. Xususan, Jomiy ushbu yuksak fazilatlarni targ‘ib etar ekan, ularning aksi bo‘lgan salbiy illatlarni ham qoralaydi. Alloma o‘z asarlarida kibr-havo, manmanlik, razolat, hasad, yolg‘on, nafsga berilish, xudbinlik kabi illatlarni keskin tanqid qiladi hamda bu kabi xulq-atvorlar inson kamoloti yo‘lidagi eng katta g‘ovlardan ekanini uqtiradi.

Abdurahmon Jomiy o‘zining “Bahoriston”, “Iskandar xiradnomasi”, “Silsilat uz-zahab”, “Tuhfat ul-ahror” va yana bir qancha asarlarida insonni ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirishga qaratilgan g‘oyalarini ilgari surgan. Uning asarlarida ilgari surilgan kamtarlik, vadaga vafu, vijdonlilik, mas’uliyatlilik, saxiylik, shukronalik, rostgo‘ylik, qanoat, insonparvarlik va halollik kabi fazilatlar har bir insonning ichki dunyosini boyituvchi, uni komillika yetaklovchi yuksak axloqiy qadriyatlar sifatida talqin etiladi. Jomiy bu fazilatlarni shunchaki targ‘ib qilmaydi, balki ularni badiiy obrazlar, turli hayotiy misollar yordamida kitobxonga ta’sirchan qilib yetkazadi. Jomiyning hayoti ham o‘zi yozganlariga mos kelgan. U saroyga yaqin bo‘lgan, ammo shohlardan manfaat kutmagan. Aksincha, so‘z va fikr mustaqilligini saqlab qolgan va barchaga birdek munosabat ko‘rsatgan. Shu jihatdan

Jomiy asarlaridagi ma'naviy-axloqiy fazilatlar nafaqat adabiy ahamiyatga ega, balki bugungi yosh avlodni tarbiyalashda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Jomiy asarlaridagi ma'naviy-axloqiy fazilatlar va qoralangan illatlarni taqqoslab, uni ikki guruhga ajratish mumkin (3-jadvalga qarang):

### 3-jadval

#### Abdurahmon Jomiy asarlaridagi insonlarda shakllantirilishi kerak bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlar va ularga tahdid soluvchi illatlar

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar	Yomon illatlar
Kamtarlik	Manmanlik, takabburlik
Vadaga vafo	Vafosizlik
Vijdonlilik	Vijdonsizlik
Mas'uliyatlilik	Befarqlik
Ochiq qo'llik	Baxillik
Shukronalik	Noshukrlik
To'g'ri va rost so'zlash	Yolg'onchilik
Sabr-qanoat	Badnafs, ochko'zlik, hirs
Insonparvarlik	Zolimlik, shafqatsizlik
Halollik	Firibgarlik, riyo, xiyonat
Hayo, or-nomus	Hayosizlik
Tinchliksevar	Adovat
Fidoyilik	Mansabparastlik

Jomiy ta'limotida ma'naviy-axloqiy fazilatlar va illatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar inson hayoti va jamiyat taraqqiyotining kaliti sifatida talqin qilish mumkin. Inson qaysi tomondan yurmasin – bu uning ma'naviy-axloqiy kelajagini belgilaydi.

Jomiy qarashlarida axloqiy fazilatlar shunchaki shaxsiy xususiyat emas, balki jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi ma'naviy ustunlardir. Agar inson adolat, ilm va xushmuomalalik yo'lini tanlasa, bu nafaqat uning o'ziga, balki butun jamiyat taraqqiyotiga ijobiy turtki beradi. Aksincha, jaholat, hasad va nafs asiriga aylanish shaxsning tanazzuliga, bu esa o'z navbatida ijtimoiy inqirozga olib keladi.

Mutafakkir asarlarida, xususan, "Bahoriston" asarida tasvirlangan ba'zi insonlar toifasiga xos fazilat va illatlarni tushuntirib beradi. Shunga asosan yoshlarni ma'naviy-axloqiy fazilatlar sari yetaklaydi. Bu esa Abdurahmon Jomiyning Bahoristonda ilgari surilgan ma'naviy-axloqiy g'oyalarini tizimli ravishda anglash va tahlil qilish imkonini beradi. Natijada, asardagi har bir obraz va voqea yosh avlodni to'g'ri yo'lga boshlovchi tarbiyaviy manba sifatida xizmat qiladi hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini boyitadi. Mazkur fikrlarni quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holatda ko'rishimiz mumkin (4-jadvalga qarang):

#### 4-jadval

### “Bahoriston” asarida tasvirlangan “ba’zi insonlar” toifasiga xos fazilat va illatlar

Toifa	Yomon xulq, illat	Salbiy oqibatlari	Zaruriy sifat	Ma’naviy saboq
Podsho (rahbar)	Tezlik (shoshqaloqlik)	Shoshqaloqligi uchun adolatli qaror chiqarmasligi mumkin	Sabr, donolik	Rahbar har qanday qarorni chuqur o‘ylab, adolat bilan chiqarmog‘i lozim
Donishmand	Mol-mulkka hirs	Ilm egasining moddiy manfaatdan o‘zini tiyolmasligi uni ilmdan chalg‘itadi	Ilmga chanqoqlik, qanoat	Donishmand ilmga xizmat qilishi kerak, boylikka emas
Boy kishi	Baxillik (xasislik)	O‘zaro munosabatlarda ishonchsizlik va sovuqlikka olib keladi	Sahiylik, mehr-oqibat	Boy insonlar sahiylik qilish orqali ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashi kerak

Abdurahmon Jomiy asarlarida adolat g‘oyasi – sharq ma’naviyati, axloqiy tafakkuri, ayniqsa, so‘fiylik ta’limotining yuksak qadriyatlaridan biri sifatida aks etgan (5-jadvalga qarang):

#### 5-jadval

### Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asarida adolat va zulm

Mezoni	Adolat	Zulm
Jamiyatga ta’siri	obodlik va taraqqiyot keltiradi	vayronagarchilik va inqiroz olib keladi
Ramziy ifodasi	quyosh, chiroq	qoya soyasi, zulmat
Tarqalish ta’siri	uzoq masofalargacha boradi	

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Abdurahmon Jomiyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari asosida pedagogik tajriba sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish**” deb nomlanadi. Ushbu bobda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish bosqichlari va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari o‘z aksini topadi. Abdurahmon Jomiyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarida aks etgan g‘oyalarning pedagogik mohiyatiga doir olib borilgan tadqiqot ishlarining samaradorlik darajasi aniqlanib, mavzu yuzasidan tajriba-sinov ishlarining tahlili hamda oliy ta’lim muassasalari talabalarida Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, “Xiradnomayi Iskandar”, “Silsilat uz-zahab” va “Tuhfat ul-ahror” kabi asarlaridagi ma’naviy-axloqiy g‘oyalarning pedagogik mohiyatiga xos bo‘lgan tarixiy tafakkur va qarashlar sohasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlili natijalari keltirilgan.

